<i>Umurov Jasurbek Jamil o'g'li</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	936
<i>Raxmonov Abduxalil Rasulovich</i>	
INKLYUZIV TA'LIM XIZMATLARINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT, OTM VA IT INFRATUZILMA INTEGRATSIYASI .....	940
<i>Maxkamova Kamola</i>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUDJETLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (ENERGETIKA KORXONALARI MISOLIDA) .....	944
<i>Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich</i>	
UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	950
<i>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</i>	
TIKUV-TRIKOTAJ MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARUVCHI KICHIK KORXONALARNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	956
<i>Abduhamidov Abdurahmon Abdulatif o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA 2026-2030-YILLARGA MO'LJALLANGAN SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	963
<i>Ismailov Timur Atabayevich</i>	
SAVDO LIBERALIZATSIYASINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TARKIBIGA TA'SIRI .....	969
<i>Sardorjon Maxmudov Sobirjon ug'li</i>	
MAHALLIY BUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINING UY XO'JALIKLARI FAROVONLIGI VA HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EMPIRIK TAHLIL QILISH .....	977
<i>Safarmurodova Marjona To'raqulovna, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF FINANCIAL SUSTAINABILITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE OIL AND GAS SECTOR .....	982
<i>Ergashev Muhibbek Aslamovich</i>	
O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA FIN TECH KOMPANIYALARI VA BANKLAR HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI .....	988
<i>Rajabova Umida Umurzoqovna</i>	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ПРЕФЕРЕНЦИЙ И ЛЬГОТ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ) .....	995
<i>Отамуродова Дилдора Абдуқримовна</i>	
THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON INTERNATIONAL MARKETING: RESHAPING GLOBAL MARKET ENTRY STRATEGIES AND CONSUMER ENGAGEMENT .....	1001
<i>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Ne'matullyev Bekmirzo Bozorboy o'g'li, Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li</i>	



TARIXIY-MADANIY TURIZM XIZMATLARINI MINTAQADA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1010
<b>Erkayeva Barno Abduraximovna</b>	
GLOBAL IQTISODIY INTEGRATSIYA SHAROITIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MENEJMENT YONDASHUVLARINING ROLI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1015
<b>Mahmudova Madinaxon Jumaboy qizi</b>	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УКРЕПЛЕНИЯ ДОХОДНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	1020
<b>Т. И. Бобакулов, Г. Ч. Джавлиев</b>	
ECOTOURISM DEVELOPMENT POTENTIAL AND THE ROLE OF GUIDES IN REGIONAL TOURISM GROWTH: EVIDENCE FROM THE NAVOI REGION OF UZBEKISTAN .....	1024
<b>Axmadova Iroda Muzaffar kizi</b>	
DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND ITS PRIORITY DIRECTIONS.....	1030
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Guzal Abdimurodova Panjiyevna</b>	
KORRELYATSION - REGRESSION TAHLILNING QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA QO'LLANILISHI AHAMIYATI .....	1035
<b>Butanova Dilnoza Rustamovna</b>	
MADANIYATLARARO YETAKCHILIK VA LINGVOMADANIY KOMPETENTSIYA BOSHQARUV ISHI SIFATIDA.....	1042
<b>Rahimova Gulnoza</b>	
SANOAT KORXONALARINI YANGI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA BILAN TA'MINLASH JARAYONLARINING HOZIRGI ZAMON HOLATI.....	1052
<b>Akbarova Maloxat Atabekovna</b>	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1056
<b>Abdukadirova Nilufar Abdaxatovna</b>	
FARG'ONA VILOYATIDA INVESTISIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH BARQAROR IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA .....	1062
<b>Qo'chqarov Yunusali Sobirjonovich</b>	



# FARG'ONA VILOYATIDA INVESTISIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH BARQAROR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

**Qo'chqarov Yunusali Sobirjonovich**

Farg'ona davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: [kuchkarov1972@gmail.com](mailto:kuchkarov1972@gmail.com)

ORCID: 0009-0004-4452-5949

**Annotatsiya.** maqolada hududlarning investisiya siyosatiga oid ilmiy qarashlar va tushunchalar tizimlashtirilgan, hududni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni yoritilgan, shuningdek, "investisiya siyosati" tushunchasiga ta'rif berilgan. Hududning qulay investision muhiti va jozibadorligi, investisiya jarayonlarining bugungi kun holati va rivojlanish omillari tahlil etilgan. Soha va tarmoqlarni rivojlantirishda investisiya takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** investisiya, investisiya siyosati, investision jozibadorlik, investision muhit, investision jarayonlar, hudud, hududning investisiya siyosati.

**Abstract.** the article systematizes the scientific and theoretical foundations of regional investment policy, highlights its role in the region's socioeconomic development, and defines the concept of "investment policy." The favorable investment environment and attractiveness of the region, the current state of investment processes, and development factors are analyzed. Key areas for improving investment in the development of industries and sectors of the economy are proposed.

**Key words:** investments, investment policy, investment attractiveness, investment climate, investment processes, region, regional investment policy.


**Аннотация.** в статье систематизированы научные и теоритические основы инвестиционной политики регионов, освещена их роль в социально-экономическом развитии региона, а также дается определение понятия «инвестиционная политика». Проанализированы благоприятная инвестиционная среда и привлекательность региона, текущее состояние инвестиционных процессов и факторы развития. Предложены основные направления совершенствования инвестиций в развитии отраслей и секторов экономики.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционная политика, инвестиционная привлекательность, инвестиционный климат, инвестиционные процессы, регион, инвестиционная политика региона.

## KIRISH

Jahon mamlakatlari iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan investisiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishda ichki va tashqi qulay investisiya muhiti, soha va tarmoqlarni ilg'or texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanish darajasi, ishlab chiqarish diversifikatsiyasi va modernizatsiyasi hamda shu kabilar ta'sir ko'rsatadi. Natijada, mintaqada faol investision jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat va rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida aholi turmush farovonligi va sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Aks holda, investisyalarning past darajasi ishsizlikni ko'payishi, oxir-oqibat aholi turmush darajasining pasayishiga olib keladi, bu esa bugungi mamlakat oldida turgan asosiy muammolardan sanaladi.

Dunyo yalpi ichki mahsulotining (YAIM) taxminan 2,5-3 foizini ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirilgan investisyalarda tashkil etadi. Xususan, bu borada Isroil (6,02%), Lixtenshteyn (5,87%), Koreya Respublikasi (5,21%), AQSH (3,59%), Shvesiya (3,41%), Belgiya (3,41%), Yaponiya (3,41%), Shveysariya (3,1%), Avstriya (3,20%), Germaniya (3,13%), Finlyandiya (2,96%), Velikobritaniya (2,90%), Daniya (2,89%), Islandiya (2,60%) va boshqa davlatlar (48,09%) tashkil qiladi (1-rasm) [1].



1-rasm. 2025-yilda dunyo yalpi ichki mahsulotida ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirilgan investisiyalar

Shu bois, mintaqaning investisiya siyosati, investision jarayonlar hamda qulay va jozibador investisiya muhiti ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Hududlarda investisiya siyosatini shakllantirishni tatqiq etish, ularning ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda mavjud salohiyat va imkoniyatlardan (xom-ashyo, inson resurslari, ishlab chiqarish resurslari) oqilona foydalanish va joylashtirish, yangi innovasion infratuzilmalarni yaratish borasida milliy dastur va loyihalarni amalga oshirish bugun har qachongidan dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26- dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida [2] "har bir dollar investisiya, eng avvalo, ilg'or texnologiyalar va ularning transferi; tashqi bozori aniq, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga; energiya, suv, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshirishga; mahalliy ishchilarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga o'qitish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi kerak"ligi ta'qidlandi.

Investisiyalar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mexanizmni ta'minlaydi. 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida jami investisiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni, iqtisodiyotga jalb qilingan xorijiy investisiyalar hajmi 43,1 milliard dollarni tashkil etgan [3].

O'zbekiston Respublika Prezidentining tashabbusi bilan Farg'ona viloyatining qo'shimcha imkoniyatlarini ishga solish, drayver sohalarni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, soha va tarmoqlarni rivojlantirish, infratuzilma va ijtimoiy investisiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga hududning o'sish nuqtalarini oshirish, aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini ko'paytirish belgilangan hamda bu borada tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2026 yilda Farg'ona viloyatida umumiy qiymati 1 485 milliard so'mlik 912 ta investisiya loyihalar, shundan sanoatda 897,7 milliard so'mlik 402 ta investisiya loyihalar amalga oshirilishi belgilangan (1-jadval).

1-jadval. 2026-yilda Farg'ona viloyatida amalga oshiriladigan investision loyihalar to'g'risida ma'lumot

T/r	Hudud nomi	Loyiha soni	Loyiha qiymati, mlrd.so'm	Shundan, sanoatda		
				Loyiha soni	Loyiha qiymati, mlrd.so'm	Ish o'rni
	Farg'ona viloyati	912	1 485,0	402	897,7	18 962

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mintaqada iqtisodiyotning soha va tarmoqlariga investision resurslarni jalb qilish va o'zlashtirish innovasion jarayonlarni faollashtirishni talab etadi. Ushbu bosqichda innovasion rivojlanish muhimligini hisobga olgan holda mintaqaning investisiya siyosatini shakllantirishda nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki innovasion jarayonlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda innovatsiyalarni joriy etilishi natijasida investision resurslarni eng muhim sohalarga maqsadli yo'naltirish imkoniyatlarini yaratadi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishda investision jarayonlar, qulay investisiya muhiti va investisiya siyosatini shakllantirish ahamiyati borasida ilmiy-nazariy qarashlar iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida muhim o'rin tutadi. Xususan, W. Sharpe [4] investisiya jarayoni kengroq yo'nalishga ega va u xavf-xatarlarni hisobga oladi, deb hisoblaydi.

Campbell McConnell va Stanley Brue [5] investisiya jarayonini investisiya faoliyati bilan taqqoslaydilar, biroq investisiya jarayoni tushunchasi investision faoliyatdan farqli ravishda boshqa jarayonlarni ham o'z ichiga oladi, deb ta'kidlaydilar.

S. Gorlanov [6] investisiya jarayonlarini ijtimoiy ishlab chiqarishning bir qismi sifatida, ijtimoiy va ishlab chiqarish munosabatlari orqali ifodalanadi, deb talqin qiladi.

Bizningcha, hududning investision jarayonlari – bu mintaqada investision faoliyat ob'yekti va sub'yektining, shuningdek, davlat tomonidan tartibga solinadigan investision muhit doirasida moliyaviy resurslar o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlari tizimidir.

Shu o'rinda, mintaqaning investisiya muhiti tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Xususan, E. Voronina O. Kim [7] investisiya muhitini investisiya jarayonlarining asosiy sub'yektlari o'rtasida iqtisodiy o'zaro ta'sirni amalga oshirish uchun asos yaratadigan qoidalar to'plami sifatida tushunadilar.

H. Бельх [8] investisiya muhiti investisiyalarni ma'lum bir hududga jalb etishda iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa shu kabi omillar bilan o'zaro ta'siri, deb tushunadi.

Iqtisodiyot atamalarining izohli lug'atida keltirilishicha, investisiya muhiti (iqlim) – ichki va tashqi investisiyalarning kirib kelishiga ta'sir ko'rsatadigan yalpi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy sharoitlar yig'indisidir [9].

Bizningcha, mintaqaning investisiya muhiti – hududning tavsifi, ichki va tashqi omillar ta'sir darajasi, xavf-xatarlar, investision jarayonlar asosiy ishtirokchilari o'rtasida sodir bo'ladigan turli shart-sharoitlar majmuidir.

Mintaqaning investisiya muhitiga davlat investisiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish orqali bevosita ko'rsatadi, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarini orqali ham bilvosita ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Davlat investisiya siyosati ta'rifiga iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha ilmiy-nazariy qarashlar mavjud. Xususan, L. Yuzvovich va A. Arutyunyan [10] davlat tomonidan investision faoliyatni rivojlantirish asosida investision jarayonlarni faollashtirishga qaratilgan turli qarorlarni qabul qilish, deb hisoblasalar M. Kojevnikova, A. Ryabsev va N. Markovalar [11] mintaqaning butun iqtisodiy tizimiga investisiya resurslarining sifati, miqdori va samaradorligini shakllantirish asosida ta'sir etadi, deb talqin qiladilar, A. Borisov [12] esa investisiya siyosatini investision faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar, tashqi va ichki siyosat, shuningdek, turli huquqiy jihatlar to'plamidir, deb ta'kidlaydi.

Iqtisodiyot atamalarining izohli lug'atida keltirilishicha, investisiya siyosati – mamlakat iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investisiyalarning zarur daraja va tuzilmasini ta'minlashga, ushbu faoliyat sub'yektlarining investisiya manbalarini topish va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investisiyaviy faolligini oshirishga doir o'zaro bog'liq tadbirlar majmuidir [9].

Bizningcha, investisiya siyosati – davlat tomonidan investisiya muhitini tartibga solish, investision faoliyatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish asosida investision jarayonlarni faollashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Mintaqaning investisiya siyosati investision jarayonlarni tartibga solish va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'plami bo'lib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, investisiya maqsadlari ketma-ketligini shakllantirish va amalga oshirish asosida respublika hamda hududiy miqyosda ishlab chiqiladi. Shu bilan birgalikda, mintaqada investisiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish hududning ixtisoslashuvi va o'sish nuqtalarini hisobga olgan holda jozibali investision muhitni yaratish, investision jarayonlarning barcha ishtirokchilari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni taqazo etadi.

Bugungi kun integratsiyasiz innovatsiya bo'lmasligini, hayotiy jarayonlarda innovatsiya – bilimlar tugal konsentratsiyalashgan integratsiyalashuvda, "informatsiya"larning tahlili va saralanishiga ko'ra muammolarning teran anglanishi tufayli paydo bo'lgan, inson intellektual tafakkurida charxlangan g'oyadan boshlanuvchi ilmiy-tadqiqot, yangi yaratilgan va huquqiy himoyalangan intellektual mulk ob'yekti mahsuli, to'kin va farovon hayot va ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlarni ta'minlovchi innovatsiya, ya'ni bozorda o'z o'rnini topgan ixtiro ekanligini isbotladi [13].

Dastlab, innovatsiya tushunchasi XX asrlarda avstriya-amerikalik iqtisodchi olim Y. Shumpeter [14] tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, ilmiy ishlarida iqtisodiyot rivojida innovatsiyalarning o'rnini tadqiq etilgan. Iqtisodchi olim P. Drukerning [15] "Biznes va innovatsiya" nomli ilmiy asarida "innovatsiya" atamasi lotin tilidan "novatio" – yangilanish (o'zgarish), "in" – yo'nalish va so'zma-so'z tarjima qilinganda "innovatio" – o'zgarish yo'nalishi degan ma'noni anglatadi. Innovatsiya har doim ham yangilik bo'lavermaydi, balki samaradorlikni oshirishga ta'sir qiluvchi omillar ham hisobga olinadi, deb hisoblaydi.



Milliy olimlar F. Raximov va B. Usmonovlar [16] insoniyat tarixidagi yangilik va yangilanishlar yoki mo'jizalardan hech birini betafakkur tasavvur qilib bo'lmaydi, har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlaridagi yangilik va yangilanishlar innovatsiya maqomiga bosqichma-bosqich rivojlanish bilan erishadi, deb hisoblaydilar.

Iqtisodiyot atamalarining izohli lug'atida keltirilishicha, innovatsiya (ingliz tilidan "innovation" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – fan-texnika, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda yangiliklarni joriy qilish, fan-texnika yutuqlarini boshqarish hamda tatbiq etishdan iborat faoliyat majmuidir [9].

Bizningcha, investisiya siyosatini shakllantirishda innovatsiyalar hududlar, mintaqalar va umuman mamlakat miqyosida barqaror rivojlanish asoslarning muhim jihatlaridan biridir. Investisiya va innovatsiya har qanday iqtisodiy tizimga yangilik kiritishning asosiy tarkibiy qismi, innovatsiyalar iqtisodiy tizimda investisiyalarning ajralmas unsuridir. Bunda, investisiya va innovatsiyaning o'zaro muvozanatini saqlash muhim hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abtraksiyalash, iqtisodiy-qiyosiy tahlil, taqqoslash, kuzatuv usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Maqolada muallifning Farg'ona viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni barqarorlashtirishda investisiyalarning ahamiyati va mavjud holat bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan materiallari hamda istiqbolda e'tiborga molik ayrim qarashlari keltirilgan.

Farg'ona viloyati O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi, maydoni 6,8 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Mintaqa Farg'ona vodiysining janubiy qismida joylashgan. Farg'ona viloyatining ma'muriy markazi – Farg'ona shahri, 15 ta ma'muriy hududga bo'lingan, yirik shaharlari Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon, Quvasoy, Quva va Rishton o'z tarixiga ega hududlar hisoblanadi [17].

Farg'ona viloyati janubda Qirg'iziston Respublikasi (447,4 kilometr) bilan, janub va janubiy-g'arbda Tojikiston Respublikasi (1312 kilometr) bilan chegaradosh. Zamonaviy shahar muhiti va ishonchli infratuzilmalar mintaqani investorlar uchun yanada jozibadorlik va qulaylikni oshiradi. Xususan, mintaqa iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan qo'shni respublikalar bilan bog'lovchi avtomobil va temir yo'laklari kesishmasida joylashgan. Bundan tashqari, dengiz sathidan 604 metr balandlikda joylashgan Farg'ona aeroporti faoliyat ko'rsatadi.

Farg'ona viloyati raqobat ustunliklariga ega, investisiya infratuzilmasi rivojlangan, keng qamrovli va muvozanatli rivojlanib borayotgan hududlardan biri hisoblanadi.

2021-2025-yillarda Farg'ona viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalar hajmi 2,6 barobarga ko'paygan, joriy davrda o'tgan yilga nisbatan 11,0 trillion so'mga ko'p investisiyalar o'zlashtirilgan. Xususan, asosiy kapitalga 2021-yilda 12,6 trillion so'm, 2022-yilda 15,4 trillion so'm, 2023-yilda 20,0 trillion so'm, 2024-yilda 21,5 trillion so'm, 2025-yilda 32,5 trillion so'm investisiyalar o'zlashtirilgan. Tahlil davrida respublikaning asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalar hajmida Farg'ona viloyati ulushi 29,2 foizni (6-o'rin), ushbu ko'rsatkich 1,34 barobarga yoki 7,6 bandga oshganligini 2-rasmda kuzatish mumkin (2-rasm) [17].




2-rasm. 2021-2025-yillarda respublikada asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalar hajmida Farg'ona viloyati ulushi dinamikasi

(O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflik ishlanmasi)



2021-2025-yillarda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalar markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1,1 barobarga oshgan yoki ulushi 5,6 foizni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 39,2 foizni tashkil etgan (3-rasm) [17].



3-rasm. 2021-2025 yillarda Farg'ona viloyatida markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalar dinamikasi, foizda

(O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflik ishlanmasi)

Farg'ona viloyati respublikada investisiyalar kiritish uchun ustuvor ahamiyatga ega mintqa hisoblanadi, asosiy soha va tarmoqlariga sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, infratuzilma va logistika kiradi. Mintaqada yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, xorijlik investorlarga berilayotgan keng qamrovli imtiyoz va kafolatlar Farg'ona viloyatida ham o'z samarasini bermoqda. Xususan, islohotlar natijasida iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyati 2025-yilda S&P Global Rating (AQSH) xalqaro reyting agentligi tomonidan tahlil qilinib, mustahkam moliyaviy indikatorlari va yuqori iqtisodiy salohiyati uchun «B+» dan «BB-» ga ko'tarilgan [18].

So'nggi yillarda Farg'ona viloyati iqtisodiyotning soha va tarmoqlariga innovatsiyalar keng joriy etilmoqda. Xususan, sanoatda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodida faol modernizatsiya ishlari olib borilmoqda. Modernizatsiyadan asl maqsad ichki bozorni yuqori sifatli neft mahsulotlari bilan ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va eksport salohiyatini kengaytirishdan iborat. Bunda, neftni qayta ishlash samaradorligini 92 foizgacha oshirish, benzin, dizel yoqilg'isi, aviatsiya kerosini va motor moylarini ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, energiya sarfini kamaytirish uchun suv va bug'dan foydalanishni maqbullashtirish, xom ashyo, mahsulotlar va energiya resurslarini boshqarishni avtomatlashtirish, hududda ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga e'tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi sohasida tomchilab sug'orish texnologiyalarini joriy etish, mevalarni quritish loyihalarini ishga tushirish, fermer xo'jaliklarida ish unumdorligini oshirishda innovatsiyalarni joriy etish ishlari olib borilmoqda [17].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan xorijiy tajribalardan hamda hududlarda investisiya siyosatini amalga oshirish va qo'llash imkoniyatlarini hisobga olgan holda quyidagilar taklif etiladi.

Mintaqada qulay va jozibali investisiya muhiti mavjudligi, uning raqobatbardosh ustunligini kengaytirishga sharoit yaratadi, iqtisodiy soha va tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish taklif etiladi. Xususan, ishlab chiqarish sanoati, qishloq xo'jaligi, transport, logistika va turizm sohaslariga investisiyalar o'zlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1. Sanoat sohasi mintaqaning rivojlantirishda, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Sanoat Farg'ona viloyatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u Yalpi hududiy mahsulotning 53,3 foizini ta'minlaydi. 2025-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 107,3 foizni tashkil etgan.



Mintaqada sanoat siyosatini amalga oshirish ishlab chiqarishni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun sharoitlar yaratishga, iqtisodiyot sanoat sohasining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilishi lozim. Shundan kelib chiqib, kimyo va neft-kimyo sanoati, sanoat korxonalarini o'rtasidan kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, ilg'or texnologiyali va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni davom ettirish.

2. 2025-yilda YAHM hajmida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 44,6 foizini tashkil etgan. Farg'ona viloyati yer resurslari 360 metrdan 1200 metrgacha balandlikdagi tog'lar bilan o'ralgan unumdor, intensiv sug'oriladigan tekislikdan iborat, uning 57 foizini yoki 302 ming gektarini qishloq xo'jaligi yerlari tashkil etadi. Mintaqada quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud:

- meva-sabzavotlarni qayta ishlash;
- yangi oziq-ovqat bozorlariga yaratish uchun organik mahsulotlarni yetishtirishni kengaytirish;
- biotexnologiya sohasini rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi sohasiga inovatsiyalarni joriy etishni davom ettirish.

3. Transport va geografik joylashuvi nuqtai nazaridan, transport va logistika sohasini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar taklif etiladi:

- multimodal transport va logistika markazlarini yaratish;
- mintaqalararo va xalqaro havo yo'nalishlari tarmog'ini kengaytirish;
- temir yo'l infratuzilmasini kengaytirish, yuk yetkazib berish yo'llarini maqbullashtirish, qo'shni davlatlar bilan temir yo'l aloqalarini rivojlantirish.

4. Farg'ona viloyatining yana raqobat ustunligi turizm sohasidir. Mintaqa tarixiy hudud hisoblanadi, uning tarixi miloddan oldingi III-II ming yilliklarga borib taqaladi. XVIII-XIX asrlarda ilm-fan, madaniyat va islom dini rivojlangan va Qo'qon xonligining markazi hisoblangan. Xususan, Qo'qon shahrida joylashgan XIX asrga oid Dahmai shoxon (Shohlar qabri) maqbarasi, Jome' masjidi va minorasi, Xudoyorxon saroyi, Kamol qozi maqbarasi, Marg'ilon shahrida joylashgan Sayid Ahmadxo'ja madrasasi, Xonaqo masjidi, Pir Siddiq majmuasi, Xo'ja Maoz maqbarasi va boshqa shu kabi tarixiy qadamjoylar Bundan tashqari mintaqada avloddan-avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan kulolchilik, ipakchilik yo'nalishlari mavjud. Marg'ilon atlaslarining dong'i butun dunyoga ketgan. Mintaqada qishloq hayoti, toza havo, sukunat va tabiiy mahsulotlar, qulay yashash sharoitlari, uy-joy muhiti, tabiat bilan yaqinlik hissi, yangi taassurotlar olish, mahalliy an'analar bilan tanishish hissida bo'lgan sayyohlar uchun qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Shu kabi raqobat ustunliklari va ixtisoslashuvi mintaqada turizm klasterini rivojlantirishga zamin yaratadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqada turizm sohasining quyidagi yo'nalishlarini rivojlantirish taklif etiladi:

- mintaqada turizm transport infratuzilmasini rivojlantirish. Bunda, sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida mintaqani respublikaning boshqa hududlari bilan bog'lash va xalqa xaritalari tuzish nazarda tutiladi;
- mintaqada mavjud hordiq chiqarish, ko'ngilochar maskanlar, bog'lar, istirohat bog'larini qayta ta'mirlash va shaharsozlik talablari asosida yangilarini qurish;
- mintaqada sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida turizm infratuzilmasini transport infratuzilmasi bilan bog'liqlikda rivojlantirish. Bunda, avtomobil yo'llari, temir yo'llar, havo yo'li va boshqalarni bir-biri bilan bog'lash, moslashtirish va reja-jadvallarini tuzish.
- mintaqada oziq-ovqat va nooziq-ovqat xalq iste'moli mollari bozorlarini tahlil qilish va baholash, sanitar va gigiyenik holatini yaxshilash, ularning ko'rinishi zamonaviy hamda milliy uslubda qayta ta'mirlash bo'yicha master-rejalar ishlab chiqish va amalga oshirish;
- mintaqada esdalik va sovg'a buyumlari ishlab chiqarishni rivojlantirish.
- mintaqada amalga oshirilayotgan ishlar va xizmatlarning natijadorligini doimiy tahlil qilish va baholab borish.

5. Mintaqada investisiya faoliyatini innovatsiya bilan uyg'unlashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

- investiyalarga innovatsiyalarni joriy etishni takomillashtirish bo'yicha normalarni normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirish;
- xalqaro moliyalashtirish dasturlarida innovasion loyihalar ishtirokini kengaytirish;
- investisiya dasturlarida innovasion loyihalarni qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish;
- eng yaxshi innovasion loyihalar uchun tanlovlar o'tkazish choralarini ko'rish;
- yirik korxonalarda venchur kapital fondlarini rivojlantirishga konsalting xizmatlari ko'rsatish.

Ushbu shartlar mintaqada investisiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, investision jarayonlarni jadallashtirish, qulay va jozibador investisiya muhitini yaratish mintaqada raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Электрон манба: <https://gtmarket.ru/ratings/research-and-development-expenditure>
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. Электрон манба: <https://president.uz/uz/lists/view/8834>



3. Ю.С. Қўчқаров. Худудлар инвестиция сиёсатини амалга оширишда хорижий тажриба ва уни қўллаш имкониятлари (Фарғона вилояти мисолида). Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил: илмий электрон журнал. 3-сон.
4. У. Шарп, Г. Александер. Инвестиции. Москва. Инфра. 1997. - 1028 с.
5. К. Макконнелл, С. Брю. Экономикс.Москва. Инфра. 2003. 983 стр.
6. С. Горланов. Современный методический подход к оценке эффективности инвестиций. Москва. Финансовый вестник. 2004. № 12. С. 56-60.
7. Э.А. Воронина, О.Л. Ким/ Россияда институционал инвестиция муҳити. Хизмат назарияси ва амалиёти: иқтисодиёт, ижтимоий соҳа, технология. 2013. 15. 163-169-бетлар.
8. Н. Белых. Формирование и развитие инвестиционной среды в регионе. РФ. 2009. №2. С. 108-111.
9. И. Норқулов, О. Маҳмудов. Иқтисодий атамаларнинг изоҳли луғати. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги. – Тошкент: “Sahhof” нашриёти. 2022. – 424 б.
10. Л. Юзвович, А. Арутюнян. Инвестиционная политика в России: механизм государственного регулирования и региональная специфика реализации. Вестник. РФ. Серия экономика и управление. 2012. № 5. с. 42-53.
11. М. Кожевникова, А. Рябцев, Н. Маркова. Система государственной инвестиционной политики в регионе. РФ. 2017. №5. С. 640-651.
12. А. Борисов. Большой экономический словарь. РФ. 2013. 895 с.
13. Ф. Рахмиов, Д. Ибодова, Ю. Қў чқаров. Инновацион фаолият асосида иқтисодиётни ривожлантириш тенденциялари. Иқтисодиёт: таҳлиллар ва прогнозлар. Тошкент. №4 (20). Октябрь-Декабрь. 2022. 81-88 б.
14. Y. Shumpeter. Teoriya of economic development: monograph / Y. Shum-peter. M.: Progress, 1982.
15. P. Druker. Business and / Item innovations Druker. M: Williams, 2007. 432 p.
16. Б.Ш. Усмонов, Ф.Х. Рахимов, У.Б. Шуқуриллаев. Инновациялар ва кластерлаштириш иқтисодий тараққиёт кафолати. Монография. Тошкент. Калеон. 2022. 176-б.
17. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотлари
18. Электрон манба: <https://gov.uz/uz/ferghana/news/view/106516>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>